

## INGLIZ, O'ZBEK VA NEMIS TILLARI ILK DAVRLARI FONOLOGIYASINING FARQLARI VA UMUMIY XUSUSIYATLARINING DIAKRONIK TAHLILI

**Mashrabboyeva Maxliyoxon Raxmatulla qizi**

Filologiya fanlari

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institute talabasi.

Tel: +998-93-053-62-31 Email: [mahliyomashrabboyeva7@gmail.com](mailto:mahliyomashrabboyeva7@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15305273>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbek, Ingliz va Nemis tillarining nazariy fonologiya sohasining kelib chiqishi tarixi ilk bosqichidagi umumiy va o'ziga hos jihatlari yuqoridagi tillar doirasida qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotni olib borishda tipologik va chog'ishtirma metodlardan foydalanildi. Unda Eski ingliz va qadimgi yuqori nemistillari, rivojlanish davridagi katta farqqa qaramay, fonologik sathi bir-biriga o'xshashligi, qadimgi turkiy til esa so'z urg'usining beqarorligi bilan farqlanishi o'rganildi. Tillarni diakronik fonologiyasini qiyoslashga qaratilgan izlanishlar natijasida tilshunoslar va o'quvchilarga turli fonologik qoidalarga ega tillarni o'rganish yoki tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni tushunishi yanada osonlashadi.

**Kalit so'zlar.** Fonologiya, unlilar, undoshlar, so'z urg'usi, eski ingliz tili, qadimgi yuqori nemis tili, qadimgi turkiy til.

## DIACHRONIC ANALYSES OF THE DIFFERENCES AND GENERAL FEATURES OF PHONOLOGY OF EARLY ENGLISH, UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of the general and specific aspects of the early stages of the history of the emergence of theoretical phonology in the Uzbek, English and German languages within the framework of the above languages. Typological and comparative methods were used in conducting this study. It was studied that Old English and Old High German, despite the great difference in the period of development, are similar in phonological level, and Old Turkic is distinguished by the instability of word stress. The results of research aimed at comparing the diachronic phonology of languages will make it easier for linguists and students to understand the difficulties in studying or translating languages with different phonological rules.

**Keywords:** Phonology, vowels, consonants, word stress, Old English, Old High German, Old Turkic.

## ДИАХРОНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗЛИЧИЙ И ОБЩИХ ЧЕРТ ФОНОЛОГИИ РАННИЙ АНГЛИЙСКОГО, УЗБЕКСКОГО И НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКОВ

**Аннотация.** В данной статье дается сравнительный анализ общих и частных сторон ранних этапов истории становления теоретической фонологии в узбекском, английском и немецком языках в рамках вышеуказанных языков. При проведении данного исследования использовались типологический и сопоставительный методы. Изучено, что древнеанглийский и древневерхненемецкий языки, несмотря на большую разницу в периоде развития, схожи на фонологическом уровне, а древнетюркский отличается неустойчивостью словесного ударения. Результаты исследований, направленных на сравнение диахронической фонологии языков, облегчат лингвистам и студентам понимание трудностей при изучении или переводе языков с разными фонологическими правилами.

**Ключевые слова:** фонология, гласные, согласные, словесное ударение, древнеанглийский, древневерхненемецкий, древнетюркский.

### **Kirish.**

Jahon tilshunosligida hozirgi zamonga kelib, ayniqsa, og‘zaki nutqni o‘rganish masalasi muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Bu holat xorijiy tillardagi fonologik birliklarni chuqurroq tushunish, va ularning o‘zbek tili bilan farqli va o‘xshashlik jihatlarini o‘rganishga bo‘lgan talab kuchayishiga sabab bo‘ldi. Tilning fonologik birliklarini, kelib chiqishini o‘rganish chet tillarini o‘qitishda kelib chiqadigan nutq muammolarini hal qilishda muhim ro‘l kasb etadi. Ammo, aynan ingliz, o‘zbek va nemis tillari fonologiyasini qiyosiy-diaxronologik tahlili bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari kamchilikni tashkil qiladi.

Bu maqolada ingliz, o‘zbek va nemis tillari fonologik kelib chiqishining dastlabki bosqichidagi tafovut va o‘xshashlik tomonlarini yoritib berishni bosh maqsad qilib qo‘yilgan. Bu izlanishlarni tahlil qilish orqali esa chet til o‘qituvchilari yanada samarali o‘qitish metodlari va yuqori sinf o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradigan usullarni ishlab chiqishlari mumkin.

Ingliz, o‘zbek va nemis tillari fonologiyasining tarixini o‘rganishdagi murakkablik bir qancha omillar, jumladan, til xilma-xilligi, tarixiy ta’sirlar va mavjud manbalar bilan bog‘liqdir.

Ular turli xil til oilalariga mansubligi sababidan ulardagi fonologik tizimlar tubdan farq qiladi.

Bu esa o'quvchilardan alohida fonetik va fonologik tamoyillarni tushunishni talab qiladi.

Fonologiya bo'yicha avval olib borilgan tadqiqotlar asosan tilning fonologik tarixini individual tarzda o'rganishlikka qaratilgan, ammo ingliz, o'zbek va nemis tillari fonologiyasi tarixini qiyosiy-tipologik tahlil qilish biroz e'tibordan chetda qoldirilgani uchun ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan izlanishlarni yoritib beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan bo'shliqlarni to'ldirish orqali tilshunoslar va o'qituvchilar uchun ushbu tillar talaffuzidagi farq va bu tafovutlar orqali kelib chiqadigan qiyinchiliklarni tushunish va ularni samarali hal etish yanada osonlashadi. Bundan tashqari tillarning diaxronik fonologiyasini qiyoslash sotsiologiya, tarix va antropologiya kabi fanlar taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shadi.

### **Metod va tafvsiyalar**

Ushbu maqolada ingliz, o'zbek va nemis tillari fonologiyasi dastlabgi bosqichini tipologik va chog'ishtirma metodlar orqali M.Xasanova, B. Tursunov, T.A Rastorguyevalar kabi tadqiqotchilarning izlanishlari natijalaridan foydalangan holda yoritib berildi.

Ingliz tili tarixini to'rt bosqichga: eski ingliz tili, o'rta ingliz tili, erta zamonaviy ingliz tili va zamonaviy ingliz tili davrlariga bo'linadi. Nemis tili uchun evalutsiya bosqichlari qadimgi yuqori nemis tili, o'rta yuqori nemis tili, ilk yangi yuqori nemis tili va yangi yuqori nemis tili davrlarini tashkil etadi. O'zbek tilida esa ular qadimgi turkiy davr, eski o'zbek davri, eski o'zbek yozma davri va yangi o'zbek tili davrlarini o'z ichiga oladi. Har bir davrda til fonologiyasida sezilarli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

Eski ingliz tili Britaniyada miloddan avvalgi 5-asrlarda German qabilalaridan hisoblangan Angl, Sakson va Yut qabilalari kelishi bilan shakllana boshladi. Ularning tili German tillar oilasiga mansub bo'lib hozirgi zamonaviy ingliz tilidan farq qilgan. Eski ingliz tili fonologiyasida urg'u dinamik xususiyatga ega bo'lgan. So'zlarda urg'u asosan o'zakning birinchi bo'g'iniga tushgan.<sup>1</sup> (R.V. Reznik, 2003):

*aga`ne* (gone)

*he`afod* (head)

*cy`ning* (king) kabi.

Qo'shma so'zlarda asosiy so'z urg'usi qo'shma so'zning birinchi qismining ilk bo'giniga, ikkinchi darajali urg'u esa ikkinchi qismning birinchi bo'g'iniga tushishi kuzatilgan:

*Sci`p-ra`p* (ship-rope) so'zidagi *scri`p* asosiy urg'u, *ra`p* ikkinchi darajali urg'udir.

---

<sup>1</sup> R.V. Reznik, T. C. Sorokina. *A history of English language.* - Maskkov: Maskov, 2003.

He`ah-clif (high cliff) so`zidagi he`ah asosiy urg`u, cli`f esa ikkinchi darajali urg`u.

Deyarli old qo`shimchalarning bari eski ingliz tilida urg`usiz bo`gin hisoblangan (ge-,be-,for-,a-).

Eski ingliz tili boy unlilar tizimiga ega bo`lib, uzun va qisqa unlilar, monoton va diftonlar, old, orqa va lablangan unlilar kabi kategoriyalarga bo`lingan. Unlilar so`zdagi joylashgan o`rniga ko`ra urg`u olgan. Urg`usiz bo`g`inlarda uzun monoton yoki diftonlar ishtirok etishmagan, bunday o`rinlardan faqat qisqa unlilar joy olgan. Har bir uzun unlini o`zining qisqa jufti bo`lgan. Bundan kelib chiqadiki, unlilar so`zdagi o`rniga ko`ra uzun va qisqa unlilarga ajratilgan.

Qisqa unlilar: a o e u i æ y ea eo

Uzun unlilar: ā ō ē ū ī æ ý ēo ēa

Unlining uzunligi fonemik vazifa bajargan, ya`ni so`zlarni bir-biridan farqlashga hizmat qilgan.

metan (to meet, to measure) – mētan (to meet)

pin (pin) – pīn (pain)

God (god) – gōd (good)

ful (full) – fūl (foul)

Undoshlar juda kam sonni tashkil etgan, bugungi kunda uchraydigan ayrim undoshlar ([f], [ʒ], [tʃ], [dʒ]) eski ingliz tilida mavjud bo`lmagan. Undoshlar tizimi esa jarangli va jarangsiz undoshlar, frikativlar (/f, v, θ, ð, s, z/), burun undoshlari (/m,n/), va to`xtalishlar (/p, b, t, d, k/)ni o`z ichiga olgan.

Qadimgi yuqori nemis tili fonologiyasiga to`xtalsak, u boshqa german tillari va hatto g`arbiy german tillaridan ham udoshlarni ikkinchi siljishga egaligi bilan farq qilgan.<sup>2</sup> (Tursunov, 2006)

So`z urg`usi huddi eski ingliz tilidek barqaror, so`z o`zagining birinchi bo`g`iniga tushgan (**her`za – yurak**). Qoshma so`zlardagi urg`u ham muqobil tarzda birinchi qismning ilk bo`g`inidan joy olgan (bro`t – hu`s “nonvoyxona”). Old qo`shimcha va sufikslar asosan urg`usiz bo`g`in sifatida hizmat qilgan:

old qo`shimchalar: bi-, ur-, ir-, ga-

sufikslar: -unga, -lih

<sup>2</sup> Tursunov, Berdiqulov. *NEMIS TILI TARIXI*. -Samarqand:Samarqand, (2006).

Qadimgi yuqori nemis tili unlilar sistemasida ham eski ingliz tilidek uzun va qisqa unlilar, diftonlar va monoftonlar, lablangan va lablanmagan unlilar kabi kategoriyalarga ajratilgan. Bundan tashqari qadimgi yuqori nemis tilida unlilar hosil bo'lish o'rniga ko'ra oldi, o'rta, va orqa unlilar guruhlariga ajratilgan:

Qisqa unlilar:

1. old unlilar:

- /i/ (e.g., \*niht\*)
- /e/ (e.g., \*nest\*)
- /æ/ (e.g., \*fater\*)

2. o'rta unlilar:

- /a/ (e.g., \*tag\*)

3. orqa unlilar:

- /u/ (e.g., \*sun\*)
- /o/ (e.g., \*holz\*)

Uzun unlilar:

1. old unlilar:

- /i:/ (e.g., \*wīh\*)
- /e:/ (e.g., \*hēr\*)

2. o'rta unlilar:

- /a:/ (e.g., \*sāl\*)

3. orqa unlilar:

- /u:/ (e.g., \*hūs\* "house")
- /o:/ (e.g., \*bōt\* "command")

Qadimgi yuqori nemis tilida undosh fonemalar tizimi jarangli (b,d,g,v,z), jarangsiz (p,t,k,f,s,ʃ,x) affrikata (ishqalanma undoshlar) (/pf/,/ts/), aspiratlangan (nafasli) (/p<sup>h</sup>/,/t<sup>h</sup>/,/k<sup>h</sup>/), yarim undoshlar (/j/,/w/), burun undoshlarini (m/, /n/, /ŋ/) o'z ichiga olgan.

Qadimgi turkiy tilda unlilar sistemasi sakkita unli fonemani tashkil qilgan. Ularni xususiyatlariga ko'ra old qator unlilar, orqa qator unlilar, tor va keng unlilar, lablangan va lablanmagan unlilar kabi kategoriyalarga ajratilgan. Eski ingliz va qadimgi yuqori nemis tillaridan farqli ravishda qadimgi turkiy tilda diftonlar va umlaut bo'lmagan. Qadimgi turkiy til unlilari [a], [a], [i'], [i], [o], [o], [u], [u] ni tashkil etadi.

Bulardan:

[a] - orqa qator, —yo‘g‘on, keng, lablanmagan unli;

[a] - old qator, —ingichka, keng, lablanmagan unli;

[i] - orqa qator, —yo‘g‘on, tor, lablanmagan unli;

[i] - old qator, —ingichka, tor, lablanmagan unli;

[o] - orqa qator, —yo‘g‘on, keng, lablangan unli;

[0] - old qator, —ingichka, keng, lablangan unli;

[u] - orqa qator, —yo‘g‘on, tor, lablangan unli;

[u] - old qator, —ingichka, tor, lablangan unli.

Qadimgi turkiy tilning unlilar tizimi tovush qatori, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligiga ko‘ra o‘zaro qarama qarshi juftliklarni yuzaga keltirgan. Unga ko‘ra orqa qator [a] unlisi “at-ot”, “aq-oq”, “as-osh” kabi so‘zlarda yo‘g‘on talaffuz qilingan, ingichka [a] unlisi “tila”, “emak-zahmat”, “ertaki-burungi” kabi so‘zlarda ingichka talaffuz qilingan.<sup>3</sup> (Omonov, 2019)

Qadimgi turkiy tilda so‘z urg‘usi so‘z o‘zagining so‘ngi bo‘g‘iniga tushgan, bu esa o‘z vaqtida so‘zning ohangdorligini ta‘minlagan, masalan “ata’”, “qagha’n”. Bu urg‘u qoidasi so‘zning tarkibiy qismlariga ham taa‘luqli bo‘lgan, ya‘ni ort qo‘shimcha qo‘shilganda urg‘u qo‘shimchaga ko‘chgan:

“qaghan” (xoqon) + -im (1-shaxs egalik) = “qaghani`m” (xoqonim).

Undosh fonemalar sistemasiga to‘xtaladigan bo‘lsak ular sonorlar, jarangli-jarangsiz, lab, burun, til undoshlari, portlovchi, sirg‘aluvchi undoshlardan tashkil topgan. /f/ undoshi bo‘lmagan. /v/ tovushini ifodalovchi belgi bo‘lmagan, o‘rniga ‘b’ shaklini eslatuvchi belgidan foydalanilgan.<sup>4</sup> (qadimgi turkiy tilning fonetik hususiyatlari. unli va undoshlar, 2019)

### **Natijalar**

Ushbu maqoladagi izlanishlar natijasida ingliz, nemis va o‘zbek tillari evolutsiyasining ilk davrlarida fonologik sathda sezilarli farqlar, vaqt va makon tafovutlariga qaramay ba‘zi o‘xshashliklar yoritib berildi. Unga ko‘ra eski ingliz tili qadimgi yuqori nemis tili va qadimgi turkiy tildan frikativ undoshlar mavjudligi, qadimgi yuqori nemis tili esa unlilar qatorida umlaut bo‘lishligi, qadimgi turkiy tilda so‘z urg‘usi o‘rni va uning beqarorligi bilan bir-biridan faqr qiladi. Izlanish natijalari quyidagi jadval orqali yoritib berildi:

<sup>3</sup> Omonov, Abdujabborov. *Qadimgi turkiy til*. -Namangan: Namangan,2019.

<sup>4</sup> *Qadimgi turkiy tilning fonetik hususiyatlari. unli va undoshlar*. (2019, 09 20). Retrieved from ARXIV.UZ.

tillar	davrlar	So'z urg'usi	unlilar	undoshlar
Eski ingliz tili	Milodiy450- 1100 Anglo-saksonlar	Barqaror, o'zakning birinchi bo'g'inida	Uzun, qisqa, monoton -difton, lablangan, uzun- qisqa, old va orqa unlilar	jarangli va jarangsiz undoshlar, frikativlar, burun undoshlari va to'xtalishlar
Qadimgi yuqori nemis tili	M.av500- milodiy 1050 German qabilalari	Barqaror, o'zakning birinchi bo'g'inida	Uzun, qisqa, monoton -difton, umlaut, lablangan, uzun- qisqa, old, o'rta va orqa unlilar	Jarangli, jarangsiz, affrikata (ishqalanma undoshlar), aspiratlangan(nafasli), yarim undoshlar, burun undoshlari
Qadimgi turkiy til	V-XI asrlar turk qabilalari	Beqaror, so'zning ohirgi bo'g'inida	old qator unlilar, orqa qator unlilar, tor va keng unlilar, lablangan va lablanmagan unlilar	Sonorlar, jarangli- jarangsiz, lab, burun, til undoshlari, portlovchi, sirg'aluvchi. /f/ undoshi bo'lmagan. /v/ tovushini ifodalovchi belgi bo'lmagan.

### **Munozaralar**

Tillarning fonologiyasi shakllanish tarixini qiyosiy-chog'ishtirma tarzda o'rganish, ayni tillarni o'rganish va o'qitishda yanada chuqurroq tushunishga, til o'qituvchilari uchun esa bu bilimlar orqali yanada samarali nutq ko'nikmalarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ushbu izlanishlar natijasida o'zbek, ingliz va nemis tillari ilk rivojlanish bosqichi fonologiyasidagi birqancha tafovut va mutanosibliklar yoritib berildi. Unga ko'ra qadimgi yuqori nemis tili va eski ingliz tili fonologiyasi, qardosh til bo'lganligi sababdan, vaqt tafovutiga qaramay, bir-biri juda yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy til esa bu tillarda so'z urg'usining beqarorligi va o'rnida butunlay farq qilgan.

Tadqiqot davomi tillarning ayni davrlariga xos bo'lgan manbalarning kam sonliligi va faqatgina ayrim qismlarigina saqlanib qolinganligi sabab bir qancha to'siqlar paydo bo'lganligi, tadqiqotning ishonchlilik miqdorini tushishiga sabab bo'lishi mumkin.

### **Xulosa**

Yangi til o'rganishda tilning boshqa sohalariga qaraganda uning o'g'zaki nutqni o'rganish va shu tilda so'zlashuvchilarni nutqini tushunish ko'proq qiyinchilik tug'diradi. Bu muammoni bartaraf etishda esa nafaqat o'rganilayotgan til, balki ona tilimizning fonologik sathini mukammal o'rganish muhim rol o'ynaydi. Ularni qiyoslash metodi yordamida yoritib berish orqali, bu sathni tushunish yanada osonlashadi. Fonologiyani mukammal o'rganishda tilning evolutsion tarixini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu sohadagi tadqiqotlar yordamida o'quvchilarga chet tillarni o'zlashtirishdagi muammolar hal qilishda foydali bo'lgan ma'lumotlar bazasi boyitiladi. Tillar fonologiyasini diaxronik analizlarini qiyoslash nafaqat tilshunoslik, balki yondosh fanlar rivojiga ham ulkan hissa qo'shadi.

### **REFERENCES**

1. Omonov, Abdujabborov. *Qadimgi turkiy til.* -Namangan: Namangan,2019.
2. <https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/tilshunoslik/qadimgi-turkiy-tilning-fonetik-xususiyatlari-unli-va-undoshlar>
3. R.V. Reznik, T. C. Sorokina. *A history of English language.*- Maskkov: Maskov,2003.
4. Ruxshona Romizova. ingliz tilining tarixiy rivojlanishi va shakllanishi. *education and research inthe era of digital transformation.* (2025)
5. Tursunov, Berdiqulov. *NEMIS TILI TARIXI.* -Samarqand:Samarqand, (2006).